

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№10

2025
oktyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 545 sahifa.
2025-yil, 25-oktyabr,*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHON MOLIYA TIZIMIDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANISHINING MUAMMOLARI VA SHARTLARI	12
Quliyev Begimqul Melikovich	
EKOLOGIK MIGRANTSIYANI MINTAQAVIY MIQYOSDA MUVOFIQLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI	18
Bahtiyor Ismoilov Ulug‘bek o‘g‘li, Kadirova Zulayxo Abduxalimovna	
O‘ZBEKISTONDA BANK XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISH HOLATI	25
Davletova Nilufar Tulanovna	
EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHDA MINTAQANI IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	30
Qodirov Farrux Ergash o‘g‘li	
SUV RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	37
Kadixodjayeva Nilufar Raxmatullayevna	
MAHALLIY XOMASHYO BAZASIDAN FOYDALANISH ORQALI ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI KAMAYTIRISH YO‘LLARI	46
Sultanov Dilshod Normamatovich	
IQTISODIYOTI RIVOJLANGAN DAVLATLARDA INSON KAPITALIGA INVESTITSİYALARNI JALB QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	50
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
O‘QITUVCHILAR VA TALABALAR UCHUN INNOVATSION TA’LIM DASTURLARINI ISHLAB CHIQUISHDA XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHUV MEXANIZMLARI	62
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA’RIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQLARNING ILMIY-TADQIQOTLAR SHARHI	68
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o‘g‘li	
RESPUBLIKA IQTISODIY TARAQQIYOTIDA OLIY TA’LIMNI MODERNIZATSIYA QILISH VA INVESTITSIYA JOZIBADORLIGINING O‘RNI	74
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	
DAVLAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI	80
O. Nurmuradov	
ICHKI AUDIT SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA BUXGALTERIYA MA’LUMOTLARINING ICHKI AUDIT JARAYONIDA EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING AHAMIYATI	85
Xamidov Javoxir Shavkat o‘g‘li, Muxitdinov Shoxijaxon Xudoyor o‘g‘li	
XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB ETISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMLARINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	90
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
KORPORATIV TUZILMALARDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI TA’MINLASHNING AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDAGI ROLI	95
Qurbonov Javlonbek Jurabekovich, Raxmatov Faxriddin Xasanovich	
GLOBAL RIVOJLANISH JARAYONIDA SUG’URTA XIZMATLARINI ISLOH QILISH MASALALARI	99
Xushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o‘g‘li	



DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	103
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA ERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINING AHAMIYATI	109
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА НА РЫНКЕ ТРУДА	115
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURSLARNI SOLIQQA TORTISHGA OID TADQIQOTLARNING NAZARIY TAHLILI	123
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
SOLIQ TO'LOVCHILAR FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH: XULQ-ATVOR IQTISODIYOTI VA PROGRESSIV TARIFLARNI LOYIHALASH	129
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
DAVLAT RAQAMLI LOYIHALARI: UZINFOCOMNING TA'LIM TIZIMI VA IQTISODIY SAMARADORLIKKA QO'SHGAN HISSASI	134
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПАСПОРТОВ В ПРОМЫШЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ	140
Мансурова Сайёра Бахтияровна	
BANK XIZMATLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI	148
Xolikova Oydin Olimjonovna	
PNEVMOMEXANIK YIGIRISH TEXNOLOGIYASI XUSUSIYATLARI	153
Jumaniyazov Kadam, Salimov Shuhrat Halimovich, Nazarov Ramazon Anvarovich	
GREEN INDUSTRY AND THE ECONOMY OF ENVIRONMENTALLY FRIENDLY CONSTRUCTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S OPPORTUNITIES	158
Mansurova Sayyora Bakhtiyor kizi	
TELEKOMMUNIKATSIYA SOHASINI RIVOJLANTIRISH TAHLILI	166
Suyunov Asror Baxtiyorovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINING MIKRO VA MAKRO TUZILMALARI, ULARNING FUNKSIONAL METADOLOGIK TAMOIYILLARI	171
Z.Teshayev	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT ULUSHI MAVJUD KORXONALARNI BOSHQARISHDA XORIJIY TAJRIBADAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	176
Ismailov Allayor Rashidovich	
MAHSULOT TANNARXINI ANIQLASHDA ISHLAB CHIQRISH XARJATLARINI OG'ISHISHLARI VA ULARNI TAQSIMLASH	183
Raxmatov Baxriddin Baxtiyor o'g'li	
ПОВЫШЕНИЕ СТОИМОСТИ СПОРТИВНЫХ ОРГАНИЗАЦИЙ И ОБЪЕКТОВ НА ОСНОВЕ АУТСОРСИНГА	186
Исмагулова Гульмира Нуралиевна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY KONSEPSIYASI	193
Xaitov Oxunjon Nomoz o'g'li	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY MEXANIZMLARI	198
Xudoyorov Lochinbek Bahromovich	
TIJORAT BANKLARIDA UZOQ MUDDATLI RESURSLARNI JALB QILISHDA XALQARO TAJRIBA	203
Abduraxmonov Akmal Nurmamat o'g'li	



MEHNATGA LAYOQATLI TRANSPORT SOHASIDAGI AHOLINI ISH O'RINLARI BILAN TA'MINLANGANLIK HOLATINI TAHLILI	207
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
TO'QIMACHILIK SOHASINI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MODELI	212
Madraximova Gulasal Ro'zimboy qizi	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT PORTFELI DIVERSIFIKATSIYASI VA GAROV TA'MINOTI SIFATINING BANK BARQARORLIGIGA TA'SIRI	220
Xolbozorov Husniddin Norbek o'g'li	
O'ZBEKISTON - 2030 STRATEGIYASI DOIRASIDA TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISH: MUAMMOLAR VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	226
Norova Nozima Nabiyeвна	
UY-JOY KOMMUNAL XIZMATLARNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING KLASSTERLI MEXANIZMI TAHLILI	232
Odambayev Oybek Ravshanbek o'g'li	
KORPORATIV BOSHQARUV TUZILMALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	236
Qurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich	
XALQARO SAVDONING RIVOJLANISHI VA ZAMONAVIY TENDENSIYALARI	242
Jalolov Bekzod Sherzod o'g'li	
TA'LIM TIZIMINI MOLIVALASHTIRISHNING YANGI TIZIMINI JORIY ETISHGA QARATILGAN NAZARIY JIHATLAR	247
Dusanov Salim Mamarasulovich	
O'ZBEKISTONDA BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	254
Aktamov Akbarjon Aslan o'g'li	
DAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARIDA QURILISH XARAJATLARI HISOBINI YURITISH	262
Ostonokulov Azamat Abduraimovich	
РАЗРАБОТКА ОРГАНИЗАЦИОННЫХ МОДЕЛЕЙ ИНТЕГРАЦИИ КРЕАТИВНЫХ ИНДУСТРИЙ В ТУРИСТИЧЕСКУЮ ИНФРАСТРУКТУРУ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН	273
Хошимова Камилла Навфал қизи	
A NEW STAGE IN THE APPLICATION OF MARKET MECHANISMS TO ENTREPRENEURIAL ACTIVITY	285
Ibrayim Maxkamov	
RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ORQALI SOG'LIQNI SAQLASH XIZMATLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	291
Eshbekova Xayriniso Baxtiyorovna	
QASHQADARYO VILOYATI IQTISODIYOTIDA DXSH ASOSIDA INVESTITSIYA MUHITINING SHAKLLANISHI	297
Hamroyev G'ayratjon Sultonovich	
TURIZM XIZMATLARI BOZORIDA MIJOZLAR EHTIYOJLARINI O'RGANISH VA TAHLIL QILISH	301
Shaymanov To'liqin Mahmayusupovich	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ И ЦИФРОВЫХ ПОДХОДОВ В НАЛОГОВОМ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВЕ	306
Элбаева Мукаддас Рашидовна	
СИНТЕЗ НЕЧЕТКОЙ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ТЕПЛОЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ	311
Бахриева Хуршида Аскарходжаевна, Сафаров Шохрух Шарофович, Бахрамов Муҳаммадали Ералиевичасистент	
ШАНХАЙСКАЯ ОРГАНИЗАЦИЯ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК КАТАЛИЗАТОР ДОСТИЖЕНИЯ СТРАТЕГИЧЕСКИХ ЦЕЛЕЙ РАЗВИТИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	319
Базарова Гулнора Гуламовна	



O'ZBEKISTON KORXONALARINING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHDA BANK KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	323
Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
QUESTIONS ABOUT THE STUDY OF PERFORMANCE AND EFFICIENCY OF APPLICATION OF LOADING AND EXTRACTING EQUIPMENT	327
Azamat Umirzokov	
MATOLARNING HAVO O'TKAZUVCHANLIGI KORRELATSION TAHLILI	334
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGI RISKLARINI SUG'URTALASHNING AFZALLIKLARI	339
Mamadjanov Shuxrat Jalolidinovich	
IKKI QATLAMLI ARALASH TOLA TARKIBLI TRIKOTAJ TO'QIMASINI OLIISH USULI	343
Usnatdinova Elmira Faxratdinovna, Mirusmanov Baxtiyor, Abdurahimova Fazilat Abdullayevna	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA ENG ILG'OR TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA QAROR QABUL QILISH JARAYONLARINING OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI	347
Axmedov Farxod Raxmonjonovich	
IMPACT OF FOREIGN INVESTMENTS ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN: CROSS-SECTORAL ANALYSIS	354
Jumayeva Kamola Azimjonovna, Khasanova Iroda Azizbek kizi	
KORXONA INVESTITSION FAOLLIGINI TA'MINLASHNING NAZARIY-USLUBIY MASALALARI XUSUSIDA	362
Ilyasova Barno Axmadovna	
MILLIY IQTISODIYOTGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI O'ZLASHTIRISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	371
G'afurov Sherzod Abduvaxob o'g'li	
EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	378
Raximov Eshmurod Normuradovich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	385
Berdivaliyeva Madina Komiljon qizi	
SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING ZAMONAVIY KONSEPTUAL MEKANIZMLARI	392
Jalolov Abbosxon Ravshanxon o'g'li	
TEPKI UZELI KONSTRUKTIV XOSSALARI TAHLILI	398
Bozorova Farida Maxmudjonovna	
НЕОБХОДИМОСТЬ ОБЪЕДИНЕНИЯ АКЦИЗНОГО НАЛОГА НА НЕФТЕПРОДУКТЫ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	405
Пулатов Дилшод Хақбердиевич, Маматкулов Салимжон Рахмонкулович, Хужамурадов Аброрбек Рўзимурат ўғли, Воронин Сергей Александрович, Абдиев Мансур Мусурмонович	
OLIY TA'LIMGA INVESTITSIYA SIYOSATI: IQTISODIY TAHLIL VA ISTIQBOLLAR	410
Talapova Nargiza Baxriddinovna	
INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE SERVICE NETWORK	416
Bahriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
YANGI O'ZBEKISTON INVESTITSION MUHIT VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI	421
Tirkashev Farruxjon Xolyigitovich	
МНОГОМЕРНАЯ БЕДНОСТЬ И УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ: ОЦЕНКА ЧЕРЕЗ РАМКУ MPI	426
Мамаризоев Жахонгир Исохонович	
ОЦЕНКА И ОПТИМИЗАЦИЯ ВЛИЯНИЯ МАКРОЭКОНОМИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ СТАБИЛЬНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОГО ОБМЕННОГО КУРСА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	430
Норбаева Мухлиса Акрам кизи	



RAQAMLI TO'LOVLAR ASOSLARI VA XAVFSIZLIGI	440
Yaqubov Azizbek G'anibekovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA LOGISTIKA XIZMATLARINI BOSHQARISHNING INNOVATSION USULLARI	444
Xomidov Xojiakbar Adxamovich	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH MEXANIZMLARI.....	449
Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna	
O'ZBEKISTONDA STARTAP EKOTIZIMINING SHAKLLANISHI VA BARQAROR RIVOJLANISHI YO'LLARI.....	454
Suleymanova Shoir Alavxanovna	
MILLIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING O'RNI	459
Alimova Dilfuzaxon Rustam qizi	
MEHNAT BOZORINI OPTIMALLASHTIRISHNING MAKROIQTISODIY BARQARORLIKKA TA'SIRI	464
Botirova Sarvinoz Bobir qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TASHKIY-IQTISODIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	469
Qurboniyazov Shaxzodbek Karimovich	
INVESTITSIYA FAOLIYATINI MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH USULLARINING MANBALARINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	474
Boboqulov Akmal Muborakbekovich	
RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARINING MOHIYATI VA TURLARI.....	482
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
FISKAL BOSHQARUV SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	491
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
ИНДЕКС ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ КАК ИНСТРУМЕНТ МОНИТОРИНГА УРОВНЯ ЖИЗНИ НАСЕЛЕНИЯ	496
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
BANK MAJBURIYATLARI VA AKTIVLARINING VAQTINCHALIK NOMUTANOSIBLIK LARI RISKINI KAMAYTIRISH	502
Ibrohimov D.M.	
O'ZBEKISTON RAQAMLI PLATFORMALARI FAOLIYATIDA RAQOBAT SIYOSATINING ZAMONAVIY MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	507
Saparov Islom O'lmasovich	
RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING YONDASHUVLARINING QISHLOQ XO'JALIGIGA TATBIQI	514
Abdikarimova Zilola Baxramovna	
TIJORAT BANKLARI KAPITALI TARKIBIDA DAROMAD MANBALARINING ULUSHI VA KAPITALLASHUV JARAYONIDAGI O'RNI	520
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA INSTITUSIONAL HAMKORLIKNING O'ZIGA XOS JIHATLARI TAHLILI	524
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
O'ZBEKISTON BANK TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGI	528
Bobojonova Sevara Baxrombek qizi	
MINTAQA SANOATI RAQAMLI XIZMATLAR BOZORIDA TIJORATLASHTIRISHNI "SMART" MODEL I	533
Norov Murodjon Maxmudovich	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH- KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI	539
Xamidjon Shaxobov	



TOMORQADAN SAMARALI FOYDALANISH-KAMBAG'ALLIK MUAMMOSINI YUMSHATISHNING MUHIM OMILI

Xamidjon Shaxobov

Namangan davlat texnika universiteti i.f.f.d., PhD.

ORCID: 0009-0000-6054-6468

e-mail: shakhobov76@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar aholi bandligini ta'minlash turmush farovonligini yuksaltirishda tomorqa xo'jaliklarini ahamiyatini yoritib berilgan xususan, Namangan viloyatida tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish orqali kambag'allikni qisqartirishni o'ziga xos hududiy xususiyatlarni bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tomorqa xo'jaliklari, kambag'allik, tadbirkorlik, klaster, pandemiya, kredit, issiqxona, salohiyat, hudud.

Abstract. This article highlights the role of household farms in providing employment and improving the well-being of the population, in particular, describes the territorial features of poverty reduction through the development of household farms in Namangan region.

Keywords: household plots, poverty, entrepreneurship, cluster, pandemic, loan, greenhouse, potential, territory.

Аннотация. В данной статье освещена роль приусадебных хозяйств в обеспечении занятости населения и повышении благосостояния населения, в частности, описаны территориальные особенности сокращения бедности за счет развития приусадебных хозяйств в Наманганской области.

Ключевые слова: приусадебные участки, бедность, предпринимательство, кластер, пандемия, кредит, теплица, потенциал, территория.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar aholini bandligini ta'minlash va muntazam daromad olishlariga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Shuning uchun tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish davlatimiz iqtisodiy siyosatini asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish aholi bandligi va shu asosida daromad olishlarini ta'minlaydi. Shuningdek, tomorqa xo'jaliklarida yetishtirilgan mahsulotlar oilalarni o'z ehtiyojlarini qondirish bilan birga ichki va xorij bozorlarni qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan to'ldirib, narxlar barqarorligini ta'minlaydi. Eng muhimi, uning ma'naviy ahamiyati katta bo'lib, kishilarni boqimandalik kayfiyatidan qutqaradi, tashabbuskorlik, tadbirkorlik, intiluvchanlik va yaratuvchanlik tuyg'usini shakllantiradi. Davlatimiz tomonidan tomorqa xo'jaliklarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy vazifa, balki xalqimizning dunyoqarashini o'zgartirishga, mehnat orqali daromad topishga bo'lgan qiziqishlarini keskin oshirishga qaratilgan siyosiy maqsaddir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Aholi kambag'alligi muammosini qisqartirish yuzasidan bir qator xorijlik olimlar tadqiqot olib borganlar. Iqtisodiyot fanining mashhur namoyandalari J.Keyns, A.Marshall, D.Rikardo, A.Smit, A.Sen, J. Saks, R. Kiyosaki, D. Adjemoglu, J. Robinson. [2]

Respublikamizda aholining ish bilan ta'minlash, yangi ish o'rinlarini yaratishning nazariy jihatlarini, kichik biznesning ishchi kuchi bandligini ta'minlashdagi roli va o'ziga xos xususiyatlari masalalari Q.X.Abdurahmonov, Sh.R.Xolmo'minov, N.U.Arabov, M.M.Xolmuxamedov, M.X.G'aniyev kabi iqtisodchi olimlarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan.[3]



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bugungi kunda 5 milliondan ortiq xonadonda 508 ming gektar tomorqa, avval tashkil etilgan dehqon xo'jaliklarida 17 ming gektar va keyingi yillarda aholiga tarqatilgan 260 ming gektar yer mavjud. Bu aholi bandligini va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda eng katta zahira bo'lib hisoblanadi. Shu bois, keyingi yillarda aholi tomorqalaridan samarali foydalanish bo'yicha davlatimiz tomonidan bir qator qonunlar, qarorlar va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, ayrim qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Mahalla yettiligi" yaratildi. Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi, O'zbekiston mahallalari uyushmasi, hokim yordamchilari instituti, tomorqachilarni qo'llab-quvvatlashning moliyaviy tizimlari yaratildi, huquqiy asoslari mustahkamlandi. Imtiyoz va yengilliklar vujudga keldi. Tomorqachilikka sarmoyalar kiritilmoqda. Tomorqachilarga mahsulotni yetishtirishdan tortib bozorga olib chiqishgacha bo'lgan barcha jarayonga ko'maklashuvchi hamkorlar, tuzilmalar yaratildi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, aholi tomorqalarini rivojlantirishga ko'maklashadigan, moddiy resurslarni yetkazib beradigan va moliyalashtiradigan, avvallari bo'lmagan yangi tizim yaratildi. Bularning natijasida o'tgan 7 yilda tomorqa egalari va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun jami 2,3 trillion so'm imtiyozli kredit va 265 milliard so'mlik subsidiya berildi. Hududlarni xususiyatidan va aholining ko'nikmasidan kelib chiqib 5 ming 145 ta mahalla meva-sabzavot yetishtirish, ko'chatchilik, limonchilik kabi yo'nalishlarga ixtisoslashtirildi.[1]

Eng e'tiborlisi, odamlar yerga zamonaviy agrotexnologiyalarni qo'llash asosida ishlov berishni o'rganmoqdalar. Natijada avvallari tomorqada gektaridan o'rtacha 18 tonna mahsulot olingan bo'lsa, bugungi kunda 2 barobar oshib, 38 tonnaga yetdi.

Shuningdek, mahallalarda qo'shimcha 470 ming tonna meva-sabzavotni saqlash, saralash va qayta ishlash quvvatlari yaratildi. Bu borada yaxshi tajribalar to'plangan tuman va mahallalar soni tobora ko'payib bormoqda. Bir qator tumanlarda odamlar tomorqadan 2-3 marta hosil olib, bir sotix yerdan o'rtacha 15-20 million so'm daromad olmoqdalar.

Bugungi kunda tomorqa nafaqat ekin ekiladigan yer, balki, kichik tadbirkorlikni yuzaga chiqaruvchi maydon, turmush farovonligini ta'minlovchi, oila va mamlakat iqtisodiyotiga naf keltiruvchi omil ekanligini amalda namoyon etmoqda. Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar va belgilangan hududiy dasturlarning barchasini zamirida yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini ko'paytirish hamda shular asosida kambag'allikni qisqartirish maqsadi mujassamlashgandir.

"Tadbirkorlik, bandlik, kambag'allikdan chiqarishga katta mablag'lar ajratamiz. Mahalladagi "yettilik"ni nima uchun tashkil qildik, kambag'allikdan chiqarish tizimini-nimaga xonadonlarga olib bordik? Maqsadimiz-tomorqani ishlatib, xonadonda ishlab chiqarish qilib, ko'chada xizmatlarni ko'paytirib, har sotixidan 1-2 million so'm daromad topishga o'tish"¹-dedi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev.

Davlatimiz rahbari Sayhunobodga tashrifi chog'ida ham, Namangan viloyati faollari bilan uchrashuvda ham tomorqadan daromad olishga alohida urg'u berdi. Mamlakatimizning aholisi yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotgan bir sharoitda har bir qarich yer qadrlil hisoblanadi. Shuning uchun uning bir qarichini ham bo'sh qoldirmasdan unumli foydalanish davlat siyosati darajasiga aylanayotganligi ham bejiz emas. Bugungi kunda Uychi, Sayhunobod, Zarbdor va G'ijduvon tajribalari yurtdoshlarimiz hayotida katta o'zgarishlarni boshlab berdi. Mazkur tumanlar tajribasi doirasida 3 million 300 ming aholi doimiy daromadli ishga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-fevraldagi "Tomorqa yer egalari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha choralari to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarini rivojlantirish bilan bog'liq vazifalar va funksiyalar Kambag'allikni qisqartirish va banlik Vazirligi zimmasiga yuklatildi. Bundan ko'zlangan maqsad tomorqa yerlari va dehqon xo'jaliklari yer maydonlaridan samarali foydalanish, sohaga zamonaviy boshqaruv tizimini joriy etish, mahallalarning ixtisoslashuvidan kelib chiqqan holda yuqori daromadli va eksportbop mahsulotlar yetishtirishni qo'llab-quvvatlashdir.[7]

Belgilangan maqsadga erishish uchun aholi tomorqalari va dehqon xo'jaliklaridagi yer maydonlarini to'liq xatlovdan o'tkaziladi va ularda yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobi yuritilib, "Online mahalla" platformasida aniq ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi. Shuningdek, tuman va mahallalarning ixtisoslashuvi bo'yicha imkoniyatlaridan kelib chiqib, tomorqalarda yuqori daromadli mahsulotlar yetishtirishni innovasion yondashuvlar asosida tashkil etish orqali aholining yuqori daromadli mehnat bilan bandligini ta'minlash asosida ularni kambag'allikdan chiqariladi.

Mamlakatimizning barcha hududlari kabi Namangan viloyatida ham tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha istiqbolli chora-tadbirlar dasturi yaratilgan. Viloyatda 252,0 ming gektar sug'oriladigan yer maydonlari bo'lib, shundan 31,9 ming gektari aholi tomorqalarini tashkil etadi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib asosiy e'tibor tomorqa yerlaridan samarali foydalanishga qaratilgan. Chunki, viloyat aholisini salmoqli qismi qishloq

1 Tomorqa va uy xo'jaligi-aholi daromadini oshirishda katta manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/7088>



joylarida yashaydi va ularni muayyan qatlami kam ta'minlangan kambag'al oilalarni tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda viloyatdagi dolzarb masalalardan biri aholi bandligini ta'minlashdir.[4]

Tahlil va natijalar. Viloyatning bir qator tumanlarida namunali tomorqa xo'jaliklari mavjud bo'lib, ular 8-10 sotixli tomorqa yerlaridan yiliga 2-3 martadan hosil va 50-60 million so'm, ayrim oilalar esa 100 million so'mdan ko'proq daromad olib, boshqa oilalarga namuna bo'lmoqdalar. Jumladan, Namangan tumanining 31,9 mingta xonadonlaridagi 1,4 ming gektar tomorqa yerlarida imkoniyatlardan yuz foiz foydalanib, 55,3 ming tonna qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirildi. Namangan tumanida fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini takomillashtirish uchun 10500 nafar kam ta'minlangan va ishsiz fuqarolarga hamda yoshlarga 1725 gektar yer maydoni ijara asosida berilib, sifatli qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirilishiga erishiladi. 510 oilaga 27500 bosh parranda, 316 oilaga subsidiya asosida 310 dona zamonaviy tikuv mashinasi va 6 ta motokultivator, 22 ta mini pech, 11 ta oilaga homiylik asosida 5 turdagi asbob-uskuna, 142 ta oilaga 10 sotixdan yer maydonlari ajratib berildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida 2024-yilda 22,4 ming nafar kishining bandligi ta'minlandi. Shuningdek, "Bir kontur-bir mahsulot" tamoyili asosida 150 xonadonning daromadini ko'paytirishga 8,2 milliard so'm bank krediti yo'naltirildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. "Asadbek g'isht sanoati" MCHJ tomonidan 11,1 milliard so'm sarflanib, meva-sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash va "Jesco" MCHJ tomonidan 16 milliard so'm evaziga sharbat mahsulotlarini ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Bugungi kunda o'ndan ortiq ana shunday korxonalar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholi tomorqalaridan foydalanish samaradorligini oshirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 30 iyundagi qaroriga asosan respublika bo'yicha 20 ta "Tomorqa xizmati" MCHJ negizida klaster korxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Bu jarayon keyingi yillarda ham davom ettirilib meva-sabzavot ko'p yetishtiriladigan 32 ta tumanda, xususan Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on, Chust, Chortoq, Uychi va Kosonsoy tumanlarida tomorqa xizmati klasterlari faoliyatini yo'lga qo'yilmoqda. [5]

Tashkil etilayotgan tomorqa klasteri korxonalariga dehqon xo'jaliklari va aholi tomorqalarini birlashtirib, ular o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni barqarorlashi tufayli raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish miqdori oshib borishi tufayli aholining qo'shimcha daromad olish imkoniyatlari ham tobora kengayib bormoqda. Chunki klaster faoliyatidagi yangilanishlar, innovasion texnologiyalarni joriy etilishi tez orada o'z samarasini ko'rsatmoqda. "Tomorqa xizmati" MCHJlar negizida tashkil etilgan klasterlar aholi tomorqasida mahsulot yetishtirish uchun urug'lik, ko'chatlar yetkazib berishdan tortib yetishtirilgan mahsulotni xarid qilish va undan pirovard mahsulot ishlab chiqarishgacha bo'lgan to'liq jarayonni o'z ichiga qamrab oladi va bu yangi ish o'rinlarini yaratilishi demakdir.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli va eksportbop ekinlar ekish, ularni hisobini yuritish va moliyalashtirish masalalari yuzasidan bergan ko'rsatmalari asosida dehqon xo'jaliklari va tomorqani rivojlantirish bo'yicha alohida Kengash tuziladi. U aholini o'qitishdan tortib, urug', ko'chat yetishtirish, mahsulot yetishtirish, qayta ishlash va eksportga chiqarish zanjirini yaratish bilan tizimli shug'ullanadi.

Mazkur Kengash boshqaradigan "Uzagrostar" xolding kompaniyasi tashkil etiladi va uning tarkibida meva-sabzavotchilik yo'nalishlariga ixtisoslashgan 15 ta kompaniya ochiladi. Ushbu kompaniyalar meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha o'z brendini yaratgan 15 ta drayver tumanni yangi bosqichga olib chiqib, ularning tajribasini yana 72 ta tumanga ommalashtiriladi.

Dehqon xo'jaliklari va tomorqa egalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha imkoniyatlar yaratiladi. Jumladan, mahalla va xonadonlarda muzlatkich, qadoqlash, quritish, qayta ishlash omborlari va issiqxonalar qurilib, aholiga 5 yilda bo'lib to'lash sharti bilan tayyor holda beriladi. Tomorqa xizmatlarini yo'lga qo'ygan tadbirkorlarga 7 yil muddatga 17,5 foizli imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shuningdek, aholi va dehqonlarning eng namunali loyihalari uchun har yili 20 milliard so'mlik grantlar e'lon qilinadi hamda 500 ta mahalladagi eng namunali loyihaga 40 million so'mdan grant beriladi.

Shu bilan birga mahallada eksportbop mahsulot yetishtirishni yo'lga qo'ygan mirishkor dehqonlarga 100 million so'mgacha, qisqa muddatli o'quv kursini tashkil qilganlarga 5,5 million so'm subsidiyalar ajratiladi.

Eng e'tiborlisi yerdan samarali foydalanib, bir sotix yerdan 5 million so'mdan yuqori real daromad olayotgan dehqonlarga yer solig'ining 90 foizi "keshbek" sifatida qaytarib beriladi. Shuningdek, aholi tomorqasi va dehqon xo'jaliklari yer maydonlarida to'liq ekilmagan yoki qarovsiz qoldirganlik holati aniqlansa, ularga davlat dasturi doirasidagi imtiyozli kreditlar berilmaydi va yer solig'i oshirilgan miqdorda undiriladi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki odamlarni mehnat qilishlari, tadbirkorlik bilan shug'ullanib daromad topishlari uchun shart-sharoitlar bosqichma-bosqich yaratib berilmoqda. Biroq, yaratilgan imkoniyatlardan mamlakatning barcha hududlarida unumli foydalanilyapti deb bo'lmaydi. Bir qator tumanlarida axoli xonadonlarida issiqxonalar kamligi va tomorqalarga mevali daraxtlar va tok ko'chatlari kam ekilganligi aniqlandi.

Bu holatni Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda, hozirgi sinovli davrda tomorqa yerlariga ekin ekmaslik, qarovsiz tashlab qo'yish yurtga va yerga nisbatan xiyonat deb baholash kerak. Chunki bugungi kundagi murakkab vaziyat dunyo mamlakatlarida oziq-ovqat xafsizligi borasidagi siyosat va chora-tadbirlar yetarli emasligi yaqqol ko'rsatib qo'ydi.

Shuning uchun viloyat, tuman hokimligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, maxalla qo'mitalari va xalq qabulxonalari rahbarlari hududlardagi xar bir xonadonlarga kirib, tomorqalarga turli xil ekinlar, mevali daraxtlar va tok ko'chatlari ekilishini, issiqxonalar tashkil etilishini o'rganib borishlari va mavjud muammolarni hal etilishiga amaliy yordam berishlari lozim.

Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojatnomasida ta'kidlaganidek: Kambag'allikni qisqartirish borasida hududlardagi haqiqiy holatga baho berish, amalga oshirilayotgan ishlar ijrosini nazorat qilish Oliy Majlis palatalari va Mahalliy Kengashlarning diqqat markazida bo'lishi lozim.

Umuman olganda bu masala barcha rahbarlarning birinchi darajali vazifasi va ish samarasini baholaydigan asosiy mezonga aylanishi kerak.

Endilikda viloyat hokimligi va tumanlar kesimida, tuman hokimlari esa mahalla fuqarolari yig'inlari kesimida har bir hududning ixtisoslashuvi, tuproq, iqlim sharoiti, suv ta'minotini hisobga olib "Bir mahalla-bir mahsulot" tamoyili asosida tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish va mahsulot yetishtirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlab olishi lozim.

Ushbu tamoyil asosida muayyan ekin mahsulotlarini yetishtirishning ixtisoslashtirilgan mahallalar soni tobora ortib bormoqda.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim kishilar davlat tomonidan berilayotgan yordamlarni va yaratilayotgan imtiyozli shart-sharoitlardan yetarlicha foydalanmayapti, ya'ni milliardlab berilgan kreditlar, soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlar o'zini samarali natijasini bermayapti.

Bunday toifadagi kishilar byerilgan kredit pullarni, chorva hayvonlarini boqib ko'paytirish, turli xil chorva mahsulotlarini olib o'z oilasini va mahalliy bozor talab-extiyojlarini qondirish o'rniga, kreditga berilgan chorva hayvonlarini arzon garovga sotib pulini esa o'zlarining boshqa ehtiyojlarini qondirishga ishlatib yubormoqdalar. Shuningdek, berilgan urug'lik, mevali daraxt ko'chatlarini o'z vaqtida ekmaslik, ekilganlari ham yetarli darajada parvarishlamaslik holatlari uchrab turibdi. Bunday salbiy holatlar banklar tomonidan berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilmaslik holatlarini yuzaga keltirmoqda. Hatto ba'zi oilalar kredit to'lashni umuman xayollariga keltirishmayapti. Go'yoki bu kredit ularga berilgan "Ehson" deb hisoblashadi. Aslida esa byerilgan kredit-bu majburiyat, mas'uliyat demakdir. Oila a'zolarini ish bilan ta'minlash va shu asosida daromad olish orqali kambag'allikdan chiqish demakdir. Bunday loyqad, boqmandalik kayfiyatidagi kishilarni dunyoqarashini tubdan o'zgartirish vaqti keldi. Bugungi kunda mamlakatimiz aholisini sergakligi kerak. Sergaklik jamiyatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga befarq bo'lmaslik, ijtimoiy faol, o'ziga va yaqinlariga jonkuyarlik bilan munosabatda bo'ladigan, kishilarning ruhiy holatidir. Xalqimizda "g'aflet uyqusidan uyg'otish" degan ibora bor. G'aflet uyqusidagilar uchun o'z uyida, mahallasida, tumanida vaholanki mamlakatda yuz berayotgan o'zgarishlarni mutlaqo qizig'i yo'q. Salbiy holatlardan tashvishga tushmaydi. Bunday sharoitda ayrim kishilar ulardan o'rnak oladilar. "U ham yuribdi-ku jonini qiynamasdan, dunyoga inson bir marta keladi, o'ynab kulib, yashab qolaylik" deb. Ana shularni g'aflet uyqusidan uyg'ota olsak, kishilarda xususan, yoshlarda yaratuvchanlik kayfiyatini shakllantira olamiz

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Kambag'allikdan chiqib ketish uchun eng muhim omil insonning intilishi, o'z kuchiga tayangan holda, aniq maqsad sari harakati bo'lishi kerak". [3]

Xulosa va takliflar. Tadqiqotlarimizga asoslanib kelgusida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qiluvchi muhim omillardan biri bo'lgan tomorqa xo'jaliklarini yanada rivojlantirish va shu asosida kambag'allikni qisqartirish uchun quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1). Davlatimiz tomonidan tomorqa xo'jaliklarini rivojlantirish bo'yicha chiqarilgan qonun, farmon va qarorlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlash. Ularni bajarilishini nazorat qiluvchi mas'ullar, ya'ni mahalla fuqarolar yig'ini raislari va hokim yordamchilari hisobotini muntazam tahlil qilib borish hamda aniqlangan kamchiliklar bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni belgilash;

2). Kambag'allik muammosini yumshatishda xorijiy mamlakatlar, jumladan, Xitoy, Hindiston va boshqalar tajribasidan foydalanish. Hindiston tajribasi shuni ko'rsatadiki kambag'allikka qarshi kurashda faqat zavodlar qurish emas, balki mavjud resurslardan samarali foydalanish, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish ham muhim ekanini tasdiqlamoqda. Bugungi kunda Hindiston aholisini 40 foizi qishloq xo'jaligi ishlari bilan band bo'lishiga qaramay yuqori natijalarga erishgan.

3). Tomorqa yerlaridan foydalanishni mahalla fuqarolar yig'ini kesimida muntazam o'rganib borish. Namunali faoliyat ko'rsatayotgan tomorqa egalari to'plangan tajribalarni ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish hamda boshqa mahalla va tumanlarga ommalashtirib borish;

4). Tomorqa xo'jaliklariga urug'lik, ko'chat, ximikatlar, meniral o'g'it yetkazib beruvchi, chorva xayvonlariga yem-xashak, veterinariya xizmatini ko'rsatuvchi bo'g'inlari faoliyatini barqaror ishlashini ta'minlash;



5). Tomorqalarda yetishtirilgan qishloq xo'jaligi maxsulotlarni xarid qiluvchi, saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalar bilan oldindan shartnomalar tuzish va ularni o'z vaqtida qat'iy bajarilishni ta'minlash, ya'ni mahsulot yetishtirishni klaster usulida tashkil etish;

6). Tomorqa xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi oilalarga berilayotgan bank kreditlaridan, chorva xayvonlaridan, urug'lik va ko'chatlardan maqsadli va o'z vaqtida foydalanishni mutasaddilar tomonidan muntazam nazorat qilib borish va aniqlangan kamchiliklarga barham berish bo'yicha aniq chora-tadbirlarni belgilash;

7). Banklar tomonidan oilalarga berilgan kreditlarni o'z vaqtida qaytarilishni yo'lga qo'yish, kredit resurslaridan maqsadli foydalanilmagan va o'z vaqtida qaytarmagan fuqorolarga tegishli iqtisodiy jazo choralari qo'llash.

8). Hududlar kesimida "Tomorqa daromad manbai", "Bir maxalla-bir maxsulot", "Daladan dasturxongacha" tamoyillari asosida amaliy va ko'rgazmali seminarlar tashkil etish. Namunali tomorqa xo'jaliklari faoliyatini va to'plangan tajribalarni ommaviy axborot vositalari orqali muntazam yoritib borish.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda aholi bandligini ta'minlash va muntazam daromad olishlari orqali kambag'allikni qisqartirishda tomorqa xo'jaliklari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shularni hisobga olib tomorqa xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berilmoqda. Bulardan ko'zlangan maqsad mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni ijobiy hal etishdir.

Yuqoridalgarga asosanib aytish mumkinki, mamlakatimizda tomorqa yerlaridan foydalanish bo'yicha yaratib berilayotgan shart-sharoitlardan, imkoniyatlardan unumli foydalanilsa, aslida kambag'allikni o'zi bo'lishi mumkin emas. Chunki, O'zbekiston aholisi eng ko'p shaxsiy tomorqa yerlariga ega bo'lgan davlatlar qatorida turadi. Agar har bir oila tadbirkorlik, dehqonchilik uchun barcha sharoitlar yaratib berilayotgan, qo'llab-quvvatlanayotgan bir sharoitda tomorqada sidqidildan mehnat qilgan odam kambag'al bo'lmasligi kerak. Umuman bugungi kunda tomorqadan unumli foydalanish tajribasi aholi o'rtasida tomorqachilik va tadbirkorlik ko'nikmasi shakllanib boryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. "Tomorqa xo'jaligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. 2021-yil 1- aprel, O'RQ-681-son <https://lex.uz/docs/-5351489>
2. Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - N.Y.: BN Publishing, 2008. -296p.; Маршал А. Основы экономической науки. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2007 г. -832 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. -1040 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. -1056 с.; Сен А. Идея справедливости – М.: Изд-во Института Гайдара; Фонд «Либеральная Миссия», 2016. – 520 с.; Джеффри Сакс. Конец бедности: экономические возможности нашего времени. — М.: издательство Института Гайдара, 2011. — 424 с. Кийосаки. Бой ота, камбагал ота.-Т.: 2010.-97 б; Аджемоглу Д. Почему одни страны богатые, а другие бедные. происхождение власти, процветания и нищеты – 2017.
3. Abdurahmonov X.X, Arabov N.U, Xolmuxamedov M.M. Aholi daromadlari va turmush sifati.–T:“Tafakkur bo'stoni”,2014y.127-139, G'aniyev M.X.Kambag'allik muammosining mohiyati, omillari va qisqartirish yo'llari. (monografiya). – N.: Usmon Nosir media, 2021.– 264 .b.
4. Tomorqa va uy xo'jaligi-aholi daromadini oshirishda katta manba. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb sayti. <https://president.uz/oz/lists/view/7088>
5. "Fidoyilik bilan ishlasak, iqtisodiyotimizda hayotiy uyg'onish va yuksalish, xalqimiz turmushida farovonlik bo'ladi" Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 14 mart kun Sirdaryo viloyatining Sayxunobod tumaniga tashrifi materiallari. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 54 (1115), 2024-yil., 15-mart.
6. "Xalqimizning farovon yashashi uchun sharoit yaratish Yangi O'zbekiston siyosatining asosiy poydevoridir". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 25 mart kuni Namangan viloyatiga tashrifi materiallari. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 60 (1121), 2024-yil., 26-mart
7. "Halol mehnat va oqilona tadbirkorlik bilan odamlar hayoti o'zgaryapti, bandligi ta'minlanib, daromadi yaxshilanyapti". O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024 yil 25-26 mart kunlari Namangan viloyati faollari bilan uchrashuv materiallari. "Yangi O'zbekiston" gazetasi. № 61 (1122), 2024-yil., 27-mart.
8. "Tomorqa va dehqonchilik yerlarida yuqori daromadli ekinlar yetishtirish bo'yicha yangi tashabbuslar ilgari surildi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev raisligida 2025 yil 30 yanvar kuni o'tkazilgan yig'ilish materiallari. <https://president.uz/oz/lists/view/7845>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tomorqa yerlari va dehqon xo'jaliklari faoliyatida zamonaviy tashkiliy tizimni joriy qilish va moliyaviy qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. 14.02.2025, PF-22-son. <https://www.lex.uz/uz/docs/-7388132>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100